

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



**MISR TASHQI SIYOSATI TARIXINI O'RGANISHDA SIYOSIY YETAKCHI
OMILI:
QIROL FARUHDAN MUBORAK HUKMIRONLIGI YAKUNIGACHA
BO'LGAN DAVR**

Shavkat Ikromov

*O'qituvchi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA**Kalit so'zlar:**

chegaralangan tashqi siyosat, panarabizm, g'arbparast tashqi siyosat, nosirizm, real va ko'p vektorli tashqi siyosat, yetakchilik omili.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada 1936-yildan 2011-yilgacha bo'lgan davrda Misr tashqi siyosatidagi kognitiv omillar o'rganilgan. Qirol Faruh va prezidentlar Jamol Abdul Nosir, Anvar Sadat hamda Husni Muborakning tashqi siyosat bilan bog'liq qarorlari tahlil qilinib ularga ta'sir ko'rsatuvchi sabablar aniqlangan. Shuningdek, Misr tashqi siyosati bilan bog'liq asosiy voqealar, tashqi siyosiy xatti-harakatlarning shakli va tamoyillari hamda qarorlarni qabul qilish mexanizmi tadqiq qilinib o'xshash jihatlar qiyoslangan, farqli jihatlar ajratib ko'rsatilgan. Misr tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari muayyan yetakchilarning xalqaro siyosatni idrok etishi ularning hissiyotlari va ijtimoiy mansubligi orqali ochib berilgan. Yetakchilarning geosiyosat hamda tashqi tahdidlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirgan voqeliklar aniqlanib tashqi siyosat bilan bog'liq qarorlarning barchasi ham aslida ichki omillar bilan bog'liq bo'lganligi, Misr prezidentlarining tashqi siyosatdagi g'alabalari va yoki mag'lubiyatlari nafaqat mamlakat taqdiriga balki ularning shaxsiy hayotlariga ham ta'sir ko'rsatishi ular hayotidagi keskin burilishlar bilan isbotlangan.

**POLITICAL LEADING FACTOR IN THE STUDY OF EGYPTIAN FOREIGN
POLITICAL HISTORY: FROM KING FARUH TO THE END OF MUBARAK'S REIGN**

Shavkat Ikramov

*Professor, Doctor of Philosophy in History,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: limited foreign policy, pan-Arabism, pro-Western policy, Nasserism, realistic and multi-vector foreign policy, leadership factor

Abstract: This article examines the cognitive factors in Egyptian foreign policy from 1936 to 2011. The foreign policy decisions of Shah Farrukh and Presidents Jamal Abdul Nasser, Anwar Sadat and Hosni Mubarak were analyzed and the reasons influencing them were determined. Also, the main events related to Egypt's foreign policy, the form and principles of foreign political behavior, and the mechanism of decision-making are researched, the similarities are compared, the differences are highlighted as well. The main features of Egyptian foreign policy are the perception of international politics of certain leaders revealed through their emotions and social affiliation. The realities that formed the perceptions of the leaders about geopolitics and external threats were clarified, and all the decisions related to foreign policy were actually related to internal factors, the victories and defeats of the Egyptian presidents in foreign policy affect not only the fate of the country, but also their personal lives.

**ПОЛИТИЧЕСКИЙ ВЕДУЩИЙ ФАКТОР В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ВНЕШНЕЙ
ПОЛИТИКИ ЕГИПТА: ОТ КОРОЛЯ ФАРУХА ДО ЗАВЕРШЕНИЯ ВЛАСТИ
МУБАРАКА**

Шавкат Икратов

*Учитель, доктор философии по историческим наукам,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: ограниченная внешняя политика, панарабизм, прозападная внешняя политика, насеризм, реалистическая и много-векторная внешняя политика, фактор лидерства.

Аннотация: В данной статье рассматриваются когнитивные факторы во внешней политике Египта с 1936 по 2011 годы. Проанализированы внешнеполитические решения Шаха Фарруха и президентов Джамалия Абдель Насера, Анвара Садата и Хосни Мубарака и определены причины, влияющие повлиявшие на их принятие. Также исследуются основные события, связанные с внешней политикой Египта, формой и принципами внешнеполитического поведения, механизмом принятия решений, а также, сравниваются сходства и выделяются различия.

Основными чертами внешней политики Египта являются восприятие международной политики отдельными лидерами, проявляющееся через их эмоции и социальную принадлежность. Были выяснены реалии, формировавшие представления лидеров о геополитике и внешних угрозах, а решения, касающиеся внешней политики, фактически были связаны с внутренними факторами, а победы и поражения египетских президентов во внешней политике сказываются не только на судьбе страны, но и личную жизнь.

KIRISH

Misr tarixdan Yaqin Sharq mintaqasidagi katta o'zgarishlarning yo'l boshchisi bo'lib kelgan. Ikki bepoyon cho'l bilan ajratilgan unumdor vodiy va mamlakatning tabiiy avtonomligi uning ming yillik tarix davomida yaxlit va o'ziga xos milliy xususiyati hamda qiyofasini shakllantirdi. Misrning tabiiy joylashuvi va uning atrofida sodir bo'layotgan voqealiklar mamlakat tashqi siyosatiga va misrlik siyosatchilarning dunyo hamda tashqi tahdidlar haqidagi tasavvurlarini shakllanishiga ta'sir o'tkazib kelgan. Demografik ustunlik (arablarning qariyb to'rt dan biri misrliklardir), qudratli armiya va ulkan madaniy meros kabi bir qancha omillar Misrning arab dunyosida yetakchilik mavqeini ta'minlab kelgan.

Misr o'zini ham Osiyo, ham Afrika mamlakati sifatida taqdim qiladi. Osiyo va Afrikani bog'lovchi ushbu mamlakat tarixan har ikki mintaqaga xalqlari bilan yaxshi munosabatlarda bo'lib kelgan. Yaqin Sharqda bobilliklar, ossuriyaliklar, forslar, arablar, turklar va isroilliklar bilan eng yaqin aloqalarni olib borgan. Afrikada esa Nil daryosi misrliklar uchun asosiy hayot manbai bo'lganligi sabab qit'aning ichki qismidagi mamlakatlar, xususan, Sudan va Efiopiya bilan samimiy munosabatlarni saqlab turish Misrning milliy manfaatlarini uchun doimo hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Misrlik siyosatshunoslar va siyosatchilar tashqi siyosatining asosiy xususiyati va yo'nalishlarini belgilashda mamlakatning ham Osiyo, ham Afrikaga mansubligini e'tirof etishdan tashqari uning O'rta Yer dengizi mamlakati ekanligiga ham e'tibor qaratishadi. Shundan kelib chiqib bir guruh ziyolilar Misr mohiyatan arab va islom olamiga mansub ekanligi sabab u arab va boshqa islom mamlakatlari bilan har tomonlama ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy aloqada bo'lishi kerak, deb hisoblasalar, G'arb qadriyatlarini va fikrlash tarzining ashaddiy tarafdorlari bo'lgan ikkinchi guruh ziyolilar Misr qadim zamonlardan geografik va madaniy jihatdan O'rta Yer dengizi mamlakati bo'lganligini ta'kidlab tashqi siyosat yo'nalishini shunga ko'ra belgilashni yoqlaydilar.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqib Misr tashqi siyosatiga oid tadqiqotlarda, mamlakat tashqi siyosatini uning xususiyatlari va siyosiy yetakchilarning mavjud voqealiklarni idrok etish darajasiga qarab bir-biridan farq qiluvchi davrlarga bo'lish mumkin. Xususan, nisbatan liberal biroq mustamlaka sharoitida juda chegaralangan davr (1922-1952); Jamol Abdul Nosirning panarabizmga asoslanuvchi, ambitsiyali tashqi siyosati (1954-1970); Anvar Sadatning bir tomonlama g'arbparast tashqi siyosati (1970-1981) va Husni Muborakning (1980-2011) ko'p qirrali va o'ta ehtiyotkor tashqi siyosati. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, Qirol Faruh davridan, Husni Muborak davrining yakuniga qadar bo'lgan davrda mamlakat tashqi siyosatining

xususiyatlari qanday bo'lgan bo'lishidan qat'iy nazar ularda bitta umumiy jihat bor edi bu – siyosiy yetakchi omili.

Misrning barcha rahbarlari tashqi siyosat tamoyillarini jamiyatga iqtisodiy foyda keltirish bilan asoslab kelgan. Shu bilan birga, ular o'zlarining tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatlaridan ichki hokimiyatni mustahkamlashda foydalanganlar. Biroq tashqi siyosatda ko'zlangan maqsadlar va amaldagi natija o'rtasidagi nomuvofiqliklar siyosiy yetakchilarning qaror qabul qilishiga cheklovlar qo'ydi, natijada bu qaramlik rejimini yaratdi.

Juda chegaralangan tashqi siyosat - 1922-1952-yillar

1952-yil Misrda boshqaruv “Ozod zobitlar” tashkiloti qo'liga o'tgunga qadar faol, aniq tizimli va to'laqonli tashqi siyosat shakllanmagan edi. Harbiy okkupatsiya sharoitida va shu bilan birga ishonuvchan va loqayd monarx Qirol Faruh davrida (1936-1952) Misr ichki siyosati yanada og'irlashdi. Mamlakatning barqaror rivojlanishiga asosan uchta xavf tahdid solar edi: monarxiyaga keskin qarshilar, siyosiy partiyalar (Vafd harakati) va Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik maqsadlari. Bu davrda Misr tashqi siyosati ichki tahdidlarni hisobga olgan holda ikkita asosiy maqsadga yo'naltirilgan: Misrda Britaniya ishg'olini tugatish hamda Misr va Sudan birligini saqlab qolish. Bu Misr tashqi ishlar vaziri Muhammad Saloh ad-Dinning 1950-yilda britaniyalik hamkasbiga yo'llagan maktubida ham ta'kidlangan, vazir o'z mamlakati tashqi siyosatini “juda chegaralangan” - deb baholaydi, evakuatsiya hamda Sudanni Misr qiroli toji va hokimiyati ostida saqlab qolish masalasi yuzasidan mamlakatda qizg'in bahs munozara ketayotganligiga e'tibor qaratadi.¹ Mustamlaka sharoitida qolayotgan Misrda hokimiyatning keng assimetriyasi va misrlik siyosatchilarning lavozimlar uchun tortishuvlari faol, aniq va yagona maqsadga yo'naltirilgan tashqi siyosat olib borishga imkon bermas edi. Ichki siyosatidagi bo'linish va qarama-qarshiliklar tashqi siyosat borasidagi qarorlariga jiddiy ta'sir o'tkazar edi.²

1936-yil Angliya-Misr shartnomasi bilan Misrga rasmiy mustaqillik berildi, ammo bu o'z navbatida Britaniya qo'shinlarining mamlakatda bo'lishini uzaytirdi. Misr Angliyadan tashqari boshqa hokimiyat da'vogarlariga nisbatan o'z pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida mintaqada yetakchi bo'lgan davlatlar, birinchi navbatda Iordaniya va Iroq bilan yaqinlashdi. 1943-1945-yillarda Qirol Faruh mamlakatning arab dunyosida ta'sirini mustahkamlaydigan mintaqaviy siyosiy tashkilot - Arab davlatlari ligasini yaratish uchun qat'iy diplomatik sa'y-harakatlarni amalga oshirdi.

Misrning 1948-yildagi Arab-Isroil qarama-qarshiligida ishtirok etish haqidagi so'nggi daqiqalarda e'lon qilingan qarori, u yuritayotgan yangi tashqi siyosatning natijalarini aks ettiruvchi yana bir holat edi. Shuningdek, 1950-yilda Qohira Misrning mintaqaviy ta'siriga putur yetkazadigan Iroq-Suriya ittifoqiga to'sqinlik qilish uchun Arab Ligasi Kollektiv xavfsizlik shartnomasini yaratishni taklif qildi. Mazkur shartnoma, Yaqin Sharqdagi Britaniya harbiy bazalari tarmog'ini yangi mahalliy arab tartibi bilan almashtirishni ham ko'zda tutgan edi.³ 1951-yilning oktyabrida Qirol Faruh 1936-yil imzolangan Angliya-Misr shartnomasidan bir tomonlama chiqadi va Misrda qolayotgan Britaniya armiyasi bilan jiddiy to'qnashuvlar

¹ Heikal, M. H. (1978). *Egyptian Foreign Policy*. Foreign Affairs, 56 (4); p.178

² Lawson, Fred. (2005). *Reassessing Egypt's Foreign Policy during the 1920s and 1930s*. In: A. Goldschmidt and A. Johnson (eds.), *Re-Envisioning Egypt, 1919–1952*. New York: The American University in Cairo Press. p 46.

³ Doran, M. (2001). *Egypt: Pan-Arabism in Historical Context*. In: L. C. Brown, *Diplomacy in the Middle East: The International Relations of Regional and Outside Powers*. London: I. B. Tauris, p.103.

boshlanadi. Biroq qirolning qat'iyatsizligi bu ishlarni uyushgan holda olib borishga imkon bermaydi va oxir-oqibat u mamlakatni tark etishga majbur bo'ladi.

Qisqacha qilib aytganda, Misrning 1952-yilgacha bo'lgan tashqi aloqalari, asosan, Britaniya bilan notinch va vaqti-vaqti bilan qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan munosabatlardan iborat edi. Biroq, Misrning mintaqaviy siyosatda markaziy rol o'ynash istagi uni o'z pozitsiyasini boshqa mintaqaviy kuchlarning tazyiqlaridan himoya qilishga qaratilgan mustaqil siyosatni amalga oshirishga undar edi.

Arab yerlari, Afrika va islom dunyosi - Nosirning ambitsiyali tashqi siyosati

1952-yilgi davlat to'ntarishi Misrning mintaqaviy va xalqaro munosabatlari tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Inqilobdan keyin Misr arab dunyosida panarabizm, anti-imperializm va uchinchi dunyochilik asosidagi kuchli, dadil, yaqqol yetakchilikka intilayotgan tashqi siyosatni olib bordi.

Yangi tashqi siyosat mintaqaviy omillar va tashqi tahdidlar: Arab-Isroil mojarosi, Sovuq urush girdobi, Yaqin Sharqqa turli kuchlarning yuqori darajada aralashuvi, arablararo munosabatlardagi ziddiyatlar va tarqoqlik, shuningdek, Osiyo va Afrikadagi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda shakllandi. Yangilanayotgan va mustaqil Misrning ambitsiyali tashqi siyosatida Jamol Abdul Nosir omili uning shaxsiy fazilatlarini, dunyoqarashi va siyosiy idrokining ta'siri kuchli bo'ldi.

Jamol Abdul Nosir tabiatan o'ziga ishongan, shuhratparast, jo'shqin, shijoatkor va ba'zan o'ta beparvo bo'lgan. U o'zining "Inqilob falsafasi" kitobida mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining uchta xalqasini ajratib ko'rsatgan: arab yerlari, Afrika va islom dunyosi⁴. 1954-yilning oxiriga kelib mamlakat boshqaruvini to'liq nazoratga olgan Nosir avvalo mintaqadagi siyosatni o'zgartirishga kirishdi. Shu bilan birga u xalqaro masalalarda ham Misrning mustaqil pozitsiyasini shakllantirdi. Jumladan, Misr Yugoslaviya va Hindiston bilan hamkorlikda qo'shilmaslik harakati dasturini yaratishni boshladi; Britaniya tomonidan ishlab chiqilgan Bag'dod paktiga (Buyuk Britaniya, Turkiya, Yeron, Iroq va Pokistonni o'z ichiga olgan harbiy ittifoq) qattiq qarshilik ko'rsatdi; Sovet Ittifoqi tashabbusiga ko'ra Chexoslovakiya bilan qurol-yarog' bo'yicha yigirma yillik kelishuvga erishdi⁵. Bu muhim o'zgarishlar Qohiraning mustaqil va yetakchilikka yo'naltirilgan tashqi siyosat olib borish istagini namoyon qildi⁶.

Nosir mintaqada yetakchilik qilish yo'lida bir qator murakkab vazifalarni o'z oldiga qo'ydi va ularni amalga oshirdi. Bu o'rinda gap Suvaysh kanalini milliyashtirish haqida bormoqda. 1955-yil G'azo sektoriga (o'sha paytda Misr nazorati ostida bo'lgan) Isroilning kutilmagan harbiy reydi va Vashingtonning Misr milliy taraqqiyoti uchun o'ta ulkan loyiha hisoblangan Asvandagi to'g'onni moliyalashdan bosh tortishini Nosir o'ziga va Misr milliy manfaatlariga qarshi bevosita qaratilgan tahdid deb baholadi. Bunga javoban, u Misrdagi xorijiy davlatlar hukmronligining so'nggi belgisi va ramzi bo'lgan Suvaysh kanali kompaniyasini milliyashtirish orqali Qo'shma Shtatlarning harakatiga o'z munosabatini bildirdi. Bu qaror 1956-yilning oktyabrida Buyuk Britaniya va Fransiya bosqiniga olib keldi. AQSH va Sovet Ittifoqining qat'iy aralashuvi natijasida Britaniya va Fransiya armiyasi o't ochishni to'xtatdi va o'z kuchlarini olib

⁴ Nasser, Gamal Abdel. *Falsafat al-thawra* (The Philosophy of the Revolution). Cairo: Maslahit al-isti'lamat. [Arab tilida] pp. 68-88.

⁵ Warburg, G. (1983). Egypt's Regional Policy from Muhammad Ali to Muhammad Anwar Al-Sadat. In: C. Pinkele and A. Pollis, *The Contemporary Mediterranean World*. New York: Praeger, pp., 128-129.

⁶ Shama, N. (2019). Between Alliance and Entente: The Egyptian-Greek-Cypriot Partnership. In: Z. Tziarras, *The New Geopolitics of the Eastern Mediterranean: Trilateral Partnerships and Regional Security*. Nicosia: Peace Research Institute (Oslo) & Friedrich Ebert Stiftung, p. 29.

chiqishga majbur qilindi. Misr kanalga to'liq egalik qilishni boshladi. Shu tariqa Misrning G'azodagi harbiy mag'lubiyati tezda siyosiy g'alabaga aylandi, natijada Nosirning mintaqada shon-shuhratga erishishi uchun yo'l ochildi. Arab dunyosida Nosir XII asrning afsonaviy harbiy qo'mondoni Salohiddin Ayubga qiyoslandi.

Panarabizm, shubhasiz, Nosir hokimiyatga kelishidan oldin paydo bo'lgan, arab davlatlarining mustamlakachilik tizimiga qarshi birlashtirgan bir g'oya edi. Nosir uning ideallaridan foydalanib ushbu g'oyaga yangi turtki va joziba bag'ishlab uning kun tartibiga ko'plab taraqqiyparvar va so'lchilarni jalb qildi. Nosir bu mafkuraga ko'pincha boshqa arab davlatlarining ichki ishlariga aralashish orqali muxoliflarni susaytirish va mintaqadagi Misr ta'sirini barqaror saqlash uchun siyosiy vosita sifatida tayangan. Nosir hukmronligi davrida Qohiraning tashqi siyosati kuchli davlatlar yoki Isroilga qarshi emas, balki boshqa arab davlatlari yoki Misrning arab davlati sifatidagi ustunligiga tahdid solgan rahbarlarga qarshi olib borilgan.⁷ Natijada bir paytlar ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lgan panarabizm tez orada Misrning mintaqaviy siyosatda yetakchilik maqomini cheklovchi to'siqqa aylandi.⁸

O'zining tashqi siyosatdagi dastlabki g'alabalaridan havolanib ketgan Nosir jamoatchilikka butun arab davlatlarining hukmdori sifatida taqdim qila boshladi. Biroq tashqi siyosatda yo'l qo'yilgan ketma-ket xatolar uning xayollarini yo'qqa chiqardi. Boshqaruv yillarida u tashqi siyosatda kamida uchta yirik qo'pol xatoga yo'l qo'ydi. *Birinchi*, 1958-yilda Suriya bilan Birlashgan Arab Respublikasi (BAR) sifatida konstitutsiyaviy birlik o'rnatishga rozi bo'ldi. Harbiy ofitserlar ta'sirida shoshma-shosharlik bilan tuzilgan va ikki xalq o'rtasidagi turli siyosiy, iqtisodiy va psixologik tafovutlar hisobga olinmagan bu ittifoq 1961-yil sentyabr oyida tugatildi. Misr hukumatiga juda qimmatga tushgan ittifoqning bu qadar qisqa "umr ko'rishi" Nosirning afsonaviy yetakchi ekanligi haqidagi xayollarni shubha ostiga qo'ydi. *Ikkinchi*, 1962-yilda Misrning Saudiya Arabistoni va boshqa arab monarxleri tomonidan qo'llab-quvvatlangan Yamandagi qurolli kuchlariga qarshi o'zining hukumatini tuzishi hamda keng ko'lamdagi harbiy aralashuvi Nosir uchun uzoq davom etgan va qimmatga tushgan vayronagarchilik urushi bo'lib chiqdi. *Uchinchi*, Nosir 1967-yilda tashqi siyosatda o'zining eng jiddiy xatosiga yo'l qo'ydi, bu uning obro'-e'tiboriga va qahramonlik darajasiga putur yetkazdi. 1967-yilgi inqiroz may oyining o'rtalarida Isroilning Suriyaga yaqinlashib kelayotgan hujumi haqida ommaviy axborot vositalarining xabarlari bilan boshlandi. Urush xavfini bilgan Nosir 1956-yildan buyon arab davlatlari va Isroil o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi. Shunga qaramay, radiostansiyalar uni BMT tinchlikparvar kuchlarining (Sinayda joylashgan) ortiga yashiringanlikda va qamalda qolgan suriyaliklarga yordamga kelish o'rniga Yamandagi arab birodarlariga qarshi jang qilganlikda aybladi. Bu urushda Misrning harbiy va tashqi siyosiy strategiyalari yo'qligi va to'liq bo'lmagan, noto'g'ri ma'lumotlarga tayanib harakat boshlangani ma'lum bo'ldi. Ommaviy axborot vositalarining shov-shuvi ostida Nosir o'n kun ichida Aqaba ko'rfazini Isroil kemalari uchun yopdi, BMT tinchlikparvar qo'shinlarini tark etishni so'radi va yarim orolga katta harbiy kuchlarni joylashtirish orqali Sinayni qayta harbiylashtirdi. Shubhasiz, bu chora-tadbirlar Misr va arab dunyosida Nosirning hokimiyatini saqlab qolish bilan birga Isroil

⁷ Dawisha, A. (1976). *Egypt in the Arab World: The Elements of Foreign Policy*. London: Macmillan. p. 75.

⁸ Hinnebusch, R. (2002). *The Foreign Policy of Egypt*. In: R. Hinnebusch and A. Ehteshami (eds.), *The Foreign Policies of Middle East States*, 1st ed. Boulder, CO: Lynne Rienner Publishers, p. 87.

bilan urush olib bormaslikka mo'ljallangan edi⁹. Biroq, aniq belgilangan reja yo'qligi sababli, uning tavakkal qilishga asoslangan nazariyasi yaxshi natija bermadi.

1967-yil 5-iyun kuni Isroilning ommaviy havo hujumi juda samarali bo'lib, Misr havo kuchlarini amalda yo'q qildi va Isroilning Sinay yarim orolini to'liq bosib olishiga yo'l ochdi. Isroil, shuningdek, Suriyaning G'ilon tepaliklari, G'azo va G'arbiy Sohilni, jumladan Quddusni ham bosib oldi. Nosirning chet el hukmronligidan mustaqillikka erishish uchun o'n yillik intilishlari barbod bo'ldi, urush xorijliklar ishg'olini qaytardi va keyinchalik Misrning Sovetlarga va boy arab davlatlariga qaramligini oshirdi. 1967-yildagi sharmandali mag'lubiyat, Misr nimaga erishmoqchi bo'lganligi va u aslida nimaga qodirligi o'rtasidagi katta tafovutni yana bir bor ochib berdi.

Misr 1968-1970-yillarda Isroilga qarshi yana qurolli harakatlarni davom ettirdi. Ammo dahshatli mag'lubiyat xalq ruhiyatida chuqur iz, qayg'uli va alamli xotiralar qoldirdi, ziyolilar orasida mamlakatning asl o'ziga xosligi va uning tashqi siyosati qanday yo'nalishda bo'lishi kerakligi to'g'risida o'rinli savollarni tug'dirdi.

Nosirning tashqi siyosatdagi xatolarini tahlil qilganimizda uning tashkiliy idoraviy masalalarni to'g'ri olib bormaganligi ko'rinib qoladi. Xususan, u tashqi ishlar idorasini tashkil qilgan, odatda bu singari idora davlat rahbariga maslahat va tahliliy ma'lumotlar berish uchun ishlasa Misrda u Nosirning istaklarini, garchi ular halokatli darajada xato bo'lsa-da, bajarish, lozim o'rinlarda unga qonuniy tus berish uchun ishladi. Bu yillarda Nosirning tashqi ishlar vaziri bo'lgan Mahmud Favziy haqida ingliz tahlilchisi Uilton Ueyn shunday yozgan edi: «Favziyning siyosat bilan unchalik aloqasi yo'q edi. U Nosirning maslahatchisi emas, balki yordamchisi edi. Nosir xalqaro munosabatlarda siyosat to'g'risida qaror qabul qilganda, Favziy uni hayratlanarli mahorat bilan amalga oshirdi. Kimdir aytganidek, "Nosir amalda, Favziy esa buni qonuniy bajaradi".¹⁰

Ammo aynan mana shu noto'g'ri tashkiliy muhit, ya'ni siyosiy tizimda ma'muriyatdan ko'ra ko'proq shaxslar hukmronlik qilishi muvaffaqiyatsizliklarga olib keldi.¹¹ Haddan tashqari markazlashgan, institutsional xususiyatga ega bo'lmagan, bahs-munozaralardan, noroziliklardan va mas'uliyatdan xoli bo'lgan bu siyosat faqat bir kishining fikriga, siyosiy idroki va qaror qabul qilish jarayoniga bog'liq holda shakllandi va aynan shuning uchun ham mag'lubiyatga uchradi. Mag'lubiyat va uning oqibatlarini "nosirizm" xayolotining tugatilishiga, Misr rahbariyati obro'siga va Nosirning sog'lig'iga ta'sir qildi. 1970-yil 28-sentyabrda Nosir vafot etdi. Uning o'rnini vitse-prezident Anvar Sadat egalladi.

"Davlat uchun" emas "xalq uchun" - Sadatning tashqi siyosatni anglashi

Faxriy ozod ofitser Anvar Sadat Misr siyosiy elitesining bir qismi edi, lekin u asosan Nosirning soyasida qoldi. Biroq Sadat raqiblari avvaliga o'ylagandek uquvsiz yoki itoatkor emas edi. U hokimiyatning dastlabki oylarida tashqi siyosatga aralashgan "nosirchilar"ning eski gvardiyasini yo'q qildi. Biroq shunga qaramasdan faoliyatining birinchi uch yilida Nosir tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan tashqi siyosat yo'nalishiga sodiq qoldi.

1973-yildan Sadat Misrda keng qamrovli demokratik islohotlarni amalga oshira boshladi, jumladan, tashqi siyosatda ham. Rahbarlik uslubi nuqtayi nazaridan Sadat pragmatik realist edi.

⁹ Shama, N. (2009). Egypt's Pathetic Foreign Policy. Daily News (Egypt), 1 January. Available from <https://dailynewsegyp.com/2009/01/01/decoding-egypt-egypts-pathetic-foreign-policy/> [ko'rilgan vaqti 25.03.2022] p.33.

¹⁰ Ayubi, S. (1994). Nasser and Sadat: Decision Making and Foreign Policy, 1970–1972. Lanham, MD and London: University Press of America p. 14.

¹¹ Ayubi, S. (1994). 1994, p. 9.

Uning panarabizm, sotsializm yoki boshqa biror bir mafkuraga moyilligi yo'q edi. U bir tomondan sarguzashtsevar va jo'shqin, boshqa tomondan esa chidab bo'lmas optimist va sabrsiz edi. Shuning uchun uning tashqi siyosati turli burilishlar va xilma-xil sarguzashtlar bilan to'lib-toshgan. Bu yondashuv odatda "elektr shok diplomatiyasi" deb nomlanadi.

Sadatga Misrning bosib olingan hududlari ustidan suverenitetini tiklashdek og'ir muammo meros bo'lib qolgan edi. Misr armiyasi Suriya bilan kelishilgan holda 1973-yil oktabr oyida Isroilga qarshi hujum uyushtirdi. Urush mintaqaviy vaziyatni larzaga keltirdi, Isroilning Misr yerlari ustidan nazorati tugatildi u yerda Misr nazorati tiklandi. Urushdan so'ng darhol Sadat tinchlik yo'llarini ko'rib chiqa boshladi. Natijada, u AQSHga yaqinlashib, sovetlar va radikal arablardan uzoqlashdi. Uning fikricha, faqatgina amerikaliklar Isroilni Sinaydan muzokaralar yo'li bilan olib chiqishga majbur qilish ta'siriga ega edi. Sadat ta'kidlaganidek, "Yaqin Sharq o'yinining 99 foizi amerikaliklar qo'lida".¹² Uning fikricha, Misrning Amerika tomonida bo'lishi "Amerikaning saxovatli yordami va texnologiyasiga erishish yo'li" bo'ladi¹³. U hatto haqiqatga to'g'ri kelmaydigan tarzda, Misr oxir-oqibat Vashingtonning Yaqin Sharqdagi asosiy ittifoqchisi sifatida Isroildan ustun bo'lishini orzu qilgan. Misr 1974 va 1975-yillarda Isroil bilan qo'shinlarni olib chiqish bo'yicha ikkita shartnoma tuzdi. Biroq u uchun bu yetarli emas edi. Sadat xalqaro hamjamiyatning Yaqin Sharqda tinchlikni saqlay olmayotganidan tashvishda edi. Shu sababdan u jamoatchilik munosabatini hisobga olmasdan hamda diplomatik va harbiy elita bilan maslahatlashmasdan 1977-yilda Quddusga tashrif buyurishga qaror qildi. Misr yetakchilari 30 yil ichida to'rtinchi marotaba Isroilga keldi (1948, 1956, 1967, va 1973). Uzoq va mashaqqatli muzokaralar mos ravishda 1978 va 1979-yillarda Kemp-Devid kelishuvlari va Misr-Isroil tinchlik shartnomasi imzolanishi bilan yakunlandi, bu esa Sinay ustidan Misr suverenitetini tikladi va ikki davlat o'rtasida tinchlik davrini boshlab berdi.

Isroil bilan tinchlik o'rnatish natijasida Misr arab dunyosidagi yetakchilik mavqeidan mahrum bo'ldi. Misr Arab Ligasidan chiqarib yuborildi va tashkilotning bosh qarorgohi Qohiradan Tunisga ko'chirildi. Ammo, Misrning chetlashtirilishi Sadatni unchalik tashvishga solmadi. Sadat uchun Misr rahbariyati "xulq-atvor belgisi emas, balki tuzilmaviy xususiyat" edi¹⁴ va shuning uchun uning tashqi siyosati Nosimikidan ko'ra ko'proq chegaralangan hamda ichki masalalarga qaratilgan edi. Asosan, Misr tashqi siyosatining harakatlantiruvchi motivi sifatida "davlat uchun" mafkurasi o'rnini "xalq uchun" mafkurasi egalladi.

Sadat davridagi o'zgarishlarning to'rtta asosiy jihatini ajratib ko'rsatish mumkin, ular: g'arbiga intilish, Isroil bilan yaqinlashish, cheklangan demokratiyaga o'tish va iqtisodiy siyosatni tubdan qayta ko'rib chiqish.

Sadat mamlakat taraqqiyoti uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilish maqsadida Misr sotsializmdan voz kechishi, iqtisodiyotini erkinlashtirishi va AQSH bilan strategik hamkorlikni rivojlantirishi shart, deb hisoblar edi. U zamonaviy, demokratik mamlakat qiyofasini yaratishga intildi va u bunga majbur ham edi.

1973-yildan keyin tashqi siyosatda boshlangan o'zgarishlar haqida gap borganida shuni ham aytish kerakki, bu mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarining ortishi bilan ham bog'liq edi. Resurslarning

¹² Jewish Telegraphic Agency (1977). Sadat Says the U.S. Holds 99% of the Cards in the Middle East. March 28. Available from www.jta.org/1977/03/28/archive/sadat-says-the-u-s-holds-99-of-the-cards-in-the-middle-east.

¹³ Shama, N. (2014). Egyptian Foreign Policy from Mubarak to Morsi: Against the National Interest. London: Routledge. p. 35.

¹⁴ Dessouki, A. H. (1991). The Primacy of Economics: The Foreign Policy of Egypt. In: B. Korany and A. H. Dessouki (eds.), The Foreign Policies of Arab States: The Challenge of Change, 2nd ed. Boulder, CO: Westview Press, p. 167

juda katta qismini urushlarga sarflanishi yoki ularning ma'lum qismini Isroil armiyasi yo'q qilishi va unga nomutanosib tarzda aholining keskin o'sishi Misr byudjetini og'irlashtirdi. Shu bilan birga, Yamandagi muvaffaqiyatsizlik, Isroilga qarshi urush va Sinayning bosib olinishi Misrning neft va turizm daromadlarining pasayishiga va 1967-yildan 1975-yilgacha Suvaysh kanali daromadining keskin kamayishiga olib keldi, bu omillarning barchasi Misr iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi¹⁵.

Shunday qilib, 1975-yilga kelib, Misr siyosatida "iqtisodiyotning ustuvorligi shubhasiz bo'lib qolgani" aniq bo'ldi¹⁶. Shu sababli, Sadatning Isroil bilan tinchlik o'rnatishiga asosan iqtisodiy motivlar sabab bo'lganligi keng ta'kidlanadi¹⁷. Biroq, boshqa nuqtayi nazardan, Sadatning yangi siyosati jumladan tashqi siyosati Misrdagi davlat-jamiyat ittifoqlarining o'zgaruvchan tabiatini hisobga olgan holda yaxshi ishlab chiqilgan edi. Ya'ni bunga ko'ra, Sadat davlat boshchiligidagi, sotsialistik ijtimoiy-iqtisodiy rejalaridan voz kechish, G'arb va neftga boy Fors ko'rfazi davlatlari bilan samimiy munosabatlarni davom ettirish va Isroil bilan urush holatini tugatishni ma'qul ko'rgan yangi kapitalistik sinfni rag'batlantirish yo'lidan bordi. Sadatning yangi siyosiy yo'li "Hukmron sinfning maxsus manfaatlari, imtiyozlari va ambitsiyalari bilan" bog'liq holda ko'rib va ishlab chiqilishi kerak bo'lgan, uning siyosati "yangi paydo bo'lgan burjuaziya" manfaatlarini qondirishga qaratilgan edi¹⁸.

Shu tariqa millat taraqqiyoti o'z o'mini yanada dolzarb moddiy ehtiyojlar va pragmatik yo'nalishlarga bo'shatib berdi. Hukmronlikka emas, balki sheriklikka intilgan Sadat tinchlikni targ'ib qiluvchi va Sovet Ittifoqining mintaqaga kirib kelishiga qat'iy qarshi davlat maqomini oldi va bu nom ostidagi mas'uliyatni munosib bajardi¹⁹.

Sadat Misr tashqi siyosati nuqtayi nazarini osonlik bilan o'zgartirishga muvaffaq bo'lganligi, bizga uning davrida ham J.A.Nosir davrida bo'lganidek hokimiyat o'ta markazlashtirilganligini va bir kishining dunyoqarashi hamda siyosiy idrokiga asoslanganligini ko'rsatdi. Masalan, Sadatning 1972-yilda Sovet harbiy maslahatchilarini haydab chiqarish to'g'risidagi qarorini faqat ikki yordamchisi oldindan bilgan va 1977-yilda Quddusga borish niyati esa faqat tashqi ishlar vaziriga ma'lum qilingan²⁰. Sadatning hayoti, bir qator burilishlar bilan yakunlandi. 1981-yil 6-oktabrda, u 1973-yilgi urush xotirasiga bag'ishlangan harbiy paradda bir guruh islom fundamentalistlari tomonidan o'ldirildi. Sud jarayonida uning qotillari Sadatning amerikaliklar va isroilliklar bilan do'stlik o'rnatganligi ularning noroziligiga sabab bo'lganligini ta'kidlashi tashqi siyosatdagi g'alabalar va mag'lubiyatlar Misr hukmdorlariga qanday ta'sir ko'rsatishini yana bir bor isbotladi. Sadatdan so'ng hokimiyatga uning vitse-prezidenti Husni Muborak tashqi siyosat borasidagi yangi siyosiy tafakkur bilan kirib keldi.

¹⁵ Kanovsky, E. (1970). *The Economic Impact of the Six-Day War: Israel, the Occupied Territories, Egypt, Jordan*. New York: Praeger., pp. 279–285.

¹⁶ Waterbury, J. (1976). *Egypt: The Wages of Dependency*. In: A. L. Udovitch, *The Middle East: Oil, Conflict and Hope*. Lexington, MA: Lexington Books. P. 293

¹⁷ Dessouki, A. H. (1984). *The Primacy of Economics: The Foreign Policy of Egypt*. In: B. Korany and A. H. Dessouki (eds.), *The Foreign Policies of Arab States*, 1st ed. Cairo: AUC Press, p. 124; Doran, M. (2001). *Egypt: Pan-Arabism in Historical Context*. In: L. C. Brown, *Diplomacy in the Middle East: The International Relations of Regional and Outside Powers*. London: I. B. Tauris, p. 115.

¹⁸ Zahran, G. (1993). *Man yahkum misr? Dirasa fi sun' al-qarar al-siyasi fi misr wa al-'alam al-thalith* (Who Rules Egypt? A Study in Political Decision-Making in Egypt and the Third World). Cairo: n.p. [Arab tilida]

¹⁹ Nour, S. and Pinkele, C. (1983). *Camp David and After: Foreign Policy in an Interdependent Environment*. In: C. Pinkele and A. Pollis, *The Contemporary Mediterranean World*. New York: Praeger, P. 264.

²⁰ Heikal, M. H. (1978). *Egyptian Foreign Policy*. *Foreign Affairs*, 56(4), P. 714.

Ehtiyotkorlik, keyin ehtiyotkorlik va yana ehtiyotkorlik – Muborakning tashqi siyosatni idrok qilishi

Muborak boshqaruvining dastlabki yillarida uning oldida turgan bosh vazifa Isroil bilan tinchlik shartnomasini xavf ostiga qo'ymasdan mamlakatni Arab davlatlari safiga qaytarish edi. U xalqaro munosabatlarda, Misrga ko'p ham bog'liq bo'lmagan, o'zgarishlardan jumladan, Falastin masalasi va Iroq-Eron urushi natijalaridan foydalanib, Arab davlatlari bilan murosaga keldi. Misr diplomatiyasining arab olamidagi yakkalikdan chiqishga qaratilgan maqsadli urinishlari asta-sekin o'z samarasini berdi. Qohira 1984-yilda Islom Konferensiya tashkilotiga qayta qabul qilindi. O'sha yili Misr Iordaniya bilan diplomatik munosabatlarini tikladi. Shu yil oxirida Misrning Arab Ligasiga a'zoligi tiklandi va tashkilotning bosh qarorgohi Qohiraga qaytarildi.

Muborak Isroil bilan tinchlik kelishuvlarini saqlab qoldi biroq u Quddusga tashrif buyurishni qat'iy istamadi, Isroil bilan ko'plab ikki tomonlama shartnomalarni muzlatib qo'ydi va xalqning Isroilga nisbatan norozilik chiqishlariga toqatli munosabat qildi. 1982-yilda Isroilning Livanga bostirib kirishi, 1987 hamda 2000-yillar Falastindagi qo'zg'olonlar kabi arab-isroil ziddiyatlarining kuchayish epizodlari Misr siyosatchilariga arab dunyosida mamlakatga nisbatan qarashlarni o'zgartirish uchun imkoniyat bo'lib ko'rindi. Misr Isroil bilan tinchlik jarayonini qayta faollashtirdi, shu tariqa u mintaqada ham arablar bilan, ham Isroil bilan aloqada bo'lgan yagona tinchlik vositachisi sifatida o'zini yana bor nomoyon qildi. Shunday qilib, Misrning Sharm al-Shayx kurort shahri 1990 va 2000-yillar davomida Yaqin Sharq tinchlik muzokaralarining asosiy maydoniga aylandi.

Muborak Qohiraning Washington bilan strategik munosabatlarini saqlab qolishni istasa-da, u ko'proq mustaqil bo'lishga va o'zidan oldingi prezidentning qo'shma shtatlarga haddan tashqari tobeligini yumshatishga harakat qildi. Masalan, u Qizil dengizdagi Ras Banas bazasida AQSH armiyasiga harbiy obyektlar berishdan bosh tortdi²¹, Washingtonning "Qaddafiyning Liviyasi" va "Saddamning Iroqiga" nisbatan dushmanlik siyosatidan uzoqlashdi. Muborakning AQSH bilan munosabatlari Sadatnikidan farqlangan, u "ko'proq tartibga solinadigan va institutsionallashtirishga"²², "tartibli va pragmatik"²³ ko'rinishda edi.

Sovuq urushning tugashi va AQSHning xalqaro tizimda yagona super kuchga aylanishi natijasida Muborak Misrning tashqi siyosiy imkoniyatlari cheklanib qolishiga qaramasdan Washington bilan qarama-qarshilikga bormadi. Misr yangi iqtisodiy bloklarga (Yevropa Ittifoqi, O'rta yer dengizi davlatlari, Sharqiy va janubiy Afrika davlatlari bilan) qo'shilishi, Rossiya va Xitoy bilan aloqalarini mustahkamlashiga qaramasdan Qo'shma shtatlarga siyosiy va harbiy qaramligi ortib boraverdi. Umuman olganda, Misr-Amerika munosabatlari Muborak davrida har yili 1,3 milliard dollarlik yordam paketi, ko'plab savdo kelishuvlari, qo'shma harbiy mashg'ulotlar va muntazam prezident sammitlarini o'z ichiga olgan holda chuqurlashdi va kengaytirildi.

1990-yilda Iroqning Kuvaytga bostirib kirishi Muborak hukumati uchun bir imkoniyat bo'lib ko'rindi. Garchi inqiroz oqibatlarini uning zaiflashib qolgan iqtisodiyotiga ta'sir qilgan bo'lsa-da, Misr diplomatiyasi bu urushdan o'z manfaatlarini yo'lida foydalandi. Gap shundaki, Muborak davrida Misrning Iroqqa nisbatan munosabati do'stona emas edi va bu ko'proq iqtisodiy

²¹ Shama, N. (2014), P. 39.

²² Dessouki, A. H. (1991), P. 177.

²³ Cantori, L. (1986). Egyptian Policy under Mubarak: The Politics of Continuity and Change. In: Robert Freedman (ed.), The Middle East after the Israeli Invasion of Lebanon. Syracuse: Syracuse University Press, P. 333.

mulohazalar va shu bilan birga Saddam Husaynning mintaqaga nisbatan ambitsiyalari bilan ham bog'liq edi. Agar Misr Iroq-Kuvayt urushi davrida jim turib vaziyatni kuzatganida edi arab davlatlari tizimida zaiflashib qolgan ta'sirini mutlaqo yo'qotishi aniq edi. Shu sabab, Misr Kuvaytni ozod qilish uchun tuzilgan AQSH boshchiligidagi koalitsiyada faol ishtirok etdi va AQSHdan keyingi ikkinchi yirik harbiy kuchga aylandi. Buning evaziga AQSH, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Saudiya Arabistoni va Jahon banki Misrning 40 milliard dollarlik katta tashqi qarzini qariyb yarmidan voz kechdi, Xalqaro valyuta fondi esa 9 milliard dollarlik yangi kredit ajratishga rozi bo'ldi.²⁴ Eng muhimi, Misr AQSH va G'arb davlatlari uchun o'zining ajralmasligi hamda mintaqadagi markaziylikini isbotladi. Misol uchun, Misr qo'shinlarining faol harakatlari Saudiya Arabistonida joylashgan AQSH qo'shinlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning harakatini qonuniylashtirdi.

Muborak davrida ichki determinantlar tashqi siyosatni shakllantirishda yanada ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. Jumladan, 1979-yilda Eron inqilobi, 1981-yilda Sadatga qilingan suiqasd, 1987-yilda HAMASning paydo bo'lishi va 1970-yillardan mamlakatda radikal islomiy harakatlarning kuchayishi rejim xavfsizligiga berilib ketgan tashqi siyosatni keltirib chiqardi. Muborak HAMAS va Hizbullohga nisbatan shubha bilan qaradi, Eron ta'sirini qaytarishga urindi va terrorizmga qarshi kurashga katta mablag' sarfladi.

Bundan tashqari, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kuchayishi tashqi munosabatlarda geosiyosatdan geoiqtisodiyotga o'tishni kuchaytirdi²⁵. Misrning Fors ko'rfazi mintaqasidan keladigan yordamga qaramligi kuchaydi, Misr bu yordamlarga javoban Iroq va Eron tahdidlariga qarshi Fors ko'rfazi davlatlariga siyosiy hamda harbiy yordamini kuchaytirdi. Bu omil ba'zi kuzatuvchilarni Misr o'ziga xos Fors ko'rfazi davlatiga aylangan, degan xulosaga kelishga olib keldi.²⁶

Nosir va Sadatning siyosatidan farqli o'laroq, Muborak mo'tadillik, ehtiyotkorlik va bosqichma-bosqichlik asosidagi tinch diplomatiyani davom ettirdi. 1983-yilda u jurnalistlarga Sadat o'rganib qolgan "elektro shok" siyosatini "afzal bilmasligini va uni qo'llashni istamasligini" aytgan.²⁷ Muborakning asosan ichki barqarorlik bilan bandligi, harakatsizlik bilan chegaralangan letargik tashqi siyosatga sabab bo'ldi²⁸. Uning 1991-yildan 2001-yilgacha bo'lgan tashqi ishlar vaziri Amr Mussa Muborakni tinch va ambitsiyasiz, nafaqaga chiqishga, qarama-qarshiliklardan qochishga moyil bo'lgan odam deb ta'riflagan.²⁹ U Muborakning tashqi siyosatdagi xatti-harakatlari uchta xususiyat bilan boshqarilishini yozgan: "ehtiyotkorlik, keyin ehtiyotkorlik va yana ehtiyotkorlik". Shunday qilib, Muborakning tashqi siyosati haqidagi achchiq hazil "Muborak hech qanday yomon ish qilmagan. Ammo, yana u hech narsa qilmagan"³⁰ haqiqatga juda yaqin keladi.

²⁴ Cantori, L. (1993). Unipolarity and Egyptian Hegemony in the Middle East. In: Robert Freedman, The Middle East after Iraq's Invasion of Kuwait. Gainesville, FL: University Press of Florida, P. 349.

²⁵ Said, A. (1995). From Geopolitics to Geo-Economics: Egyptian National Security Perceptions. In: J. Leonard, S. Limone, A. Said and Y. Sayigh, National Threat Perceptions in the Middle East. New York: United Nations, pp. 17-30.

²⁶ A. Said and Y. Sayigh (1995), P. 24.

²⁷ Zahran, G. (1993). *Man yahkum misr? Dirasa fi sun' al-qarar al-siyasi fi misr wa al-'alam al-thalith* (Who Rules Egypt? A Study in Political Decision-Making in Egypt and the Third World). Cairo: n.p. [Arab tilida], P. 165.

²⁸ Vatikiotis, P. J. (1991). The History of Modern Egypt: From Muhammad Ali to Mubarak, 4th ed. London: Weidenfeld & Nicolson., 455.

²⁹ Moussa, Amr (2017). *Kitabiyya* (My Book). Cairo: Dar Al-Shuruq. [Arab tilida], pp. 555-565.

³⁰ Hopwood, D. (1993). Egypt: Politics and Society, 1945-1990. London: Routledge. Jewish Telegraphic Agency (1977). Sadat Says the U.S. Holds 99% of the Cards in the Middle East. March 28. Available from

Darhaqiqat, Muborak davrida Misr tashqi siyosati zaiflashib bordi. Lavozimda uzoq vaqt turish istagida siyosiy strategiyani xavfsizlik yondashuvlari bilan, dinamizmni esa turg'unlik bilan almashtirish va har qanday holatda ham xavfdan qochish uchun instinktiv moyillikni kuchaytirish Muborak uchun qimmatga tushdi. Boshqaruvining so'nggi yillarida Misr tashqi siyosati 1980 va 1990-yillarning boshlarida Arab dunyosida "teng tenglar orasida birinchi" sifatida qabul qilinayotgan zamonlardagi ta'sirini yo'qotgan edi.³¹

XULOSA

Qirol Faruh va prezidentlar Jamol Abdul Nosir, Anvar Sadat hamda Husni Muborakning tashqi siyosat bilan bog'liq qarorlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hukumatning tashqi siyosat bilan bog'liq asosiy qarorlari, jumladan, urush, tinchlik va ittifoqchilik to'g'risidagi qarorlar yakka shaxs - siyosiy yetakchi tomonidan qabul qilindi. Aynan ular vaziyatni qanday baholagan bo'lsa, qanday idrok qilgan bo'lsa shunday qaror qabul qilishdi. Siyosiy, diplomatik va harbiy soha vakillarining mulohazalari bilan hisoblashilmadi. Jamoatchilik fikri, matbuot, siyosiy partiyalar va nufuzli guruhlar ishtiroki ham juda kam yoki deyarli hech qanday rol o'ynamadi. Bu holat nafaqat yetakchiga katta vakolat berdi, balki uning vakillar bilan maslahatlashish va munozara olib borishga zaruriyat ham qoldirmadi. Natijada tashqi siyosatda yirik ichki noroziliklarni keltirib chiqargan katta xatolarga yo'l qo'yildi.

Tashqi siyosatdagi xato qarorlar mamlakatni tashqi kuchlarga qaramligini oshirdi, iqtisodni zaiflashtirib bordi, xalq noroziligiga sabab bo'ldi. To'lov layoqatining kuchsizlanishi, qashshoqlikning yuqori darajasi, daromadlarning sezilarli tengsizligi kabi omillar iqtisodiy muammolar, korrupsiyaning keskin darajada oshishi hamda ma'muriy boshqaruvda xatolarga yo'l qo'yilishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Misr tarixida siyosiy yetakchilarining tashqi siyosatdagi g'alabalari va yoki mag'lubiyatlari nafaqat mamlakat taqdiriga balki ularning shaxsiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatib, keskin burulishlarga sabab bo'ldi.

www.jta.org/1977/03/28/archive/sadat-says-the-u-s-holds-99-of-the-cards-in-the-middle-east [accessed 15 January 2023].

³¹ Cantori, L. (1986). Egyptian Policy under Mubarak: The Politics of Continuity and Change. In: Robert Freedman, The Middle East after the Israeli Invasion of Lebanon. Syracuse: Syracuse University Press, p.351.